

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN OTORINOLARINGOLOGIYA
VA BOSH-BO'YIN KASALLIKLARI ILMIY-AMALIY TIBBIYOT
MARKAZI

«Tasdiqlayman»



«QULOQ JARROHLIGINING KIRISH KURSI»
mavzuiy malaka oshirish kursi
O'QUV DASTURI
(o'qish hajmi 72 kredit)

Toshkent – 2024 y.

Tuzuvchilar:

Xasanov U.S. -

Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, t.f.d., professor

Voxidov U.N. -

Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori o'rinbosari, t.f.d., dotsent

Taqrizchilar:

Djuraev J.A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, otorinolaringologiya kafedrasida dotsenti, t.f.d.

Ergashev U.M. -

Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori o'rinbosari, t.f.n.

Kirish

O'quv dastur shifokor otorinolaringolog va surdologning ish faoliyati jarayonida ko'p uchraydigan quloq kasalliklari oldini olish, zamonaviy tekshirish usullari, tasniflar, klinik protokollar, standartdarni qo'llagan holda yordamida tashxislash, davolash va reabilitatsiya qilishning takomillashgan usullarini taqdim etish, ularning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko'nikmalari ko'lamini kengaytirish asosida xalqaro standartlarga javob beradigan, raqobatbardosh malakali kadrlarni shakllantirish maqsadida tuzilgan.

Dastur sog'liqni saqlash xodimlarini uzluksiz kasbiy malakalarini rivojlantirish, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga va tibbiyot amaliyotining joriy ehtiyojlariga mos holda, tibbiyot fani va amaliyotidagi joriy vaziyatning o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Maqsad. Otorinolaringolog va surdolog shifokorlarning eshitish a'zosi xolatini baxolash, tashxis qo'yish, davolash, mikrojarrohlik amaliyotlarini tanlash hamda bajarish va reabilitatsiya qilishda amaldagi standartlar va protokollarga muvofiq nazariy bilim darajasini oshirish va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirishdan iborat.

Vazifalar.

- Materiallarini o'zlashtirish asosida eshitish a'zosi xolatini baxolash, kasalliklarni zamonaviy tashxislash usullari bilan tanishtirish, bemorlarni davolash va reabilitatsiya qilish bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish orqali kasbiy kompetentlikni oshirish;
- Quloq anatomiyasi, fiziologiyasi, tekshirish usullari, topogorafiyasi, otojarrohlik tashkiliy jihatlari, bo'lim va jarrohlik bloklarini asbob-anjomlar bilan jihozlanishi bo'yicha bilimlari doirasini kengaytirish;
- Quloqda o'tkaziladigan mikrojarrohlik turli amaliyotlarini klinik protokollar, standartlarni tahlil qilish va ularni qo'llash bo'yicha ko'nikmalarni yangilash.

Ta'lim oluvchilar kontingenti: internatura, klinik ordinatura, magistratura yoki boshlang'ich ixtisoslashtirishda mazkur mutaxassislikni egallaganligini tasdiqlovchi hujjati bo'lgan shifokor otorinolaringologlar.

Tinglovchini o'quv dasturini o'zlashtirishi uchun zarur bo'lgan kompetensiya:

- otorinolaringologik kasalliklar to'g'risida keng qamrovli bilimlarga ega bo'lish, ularni tahlil qilish va turli klinik kechishlarini izohlash;
- LOR a'zolari kasalliklarini mustaqil tashxis qo'yishi va zarur davolash choralarini belgilay olishi;
- eshitish a'zosi kasalliklarini tashxislash uchun zarur bo'lgan audiologik tekshirish usullari va xizmat turlarini aniq bilish;
- shifokor otorinolaringologning kvalifikatsiya tasnifida ko'rsatilgan amaliy ko'nikmalarni mustaqil bajarishi yoki o'tkazish texnikasi xaqida ma'lumotga ega

2024 y. «__» _____ bayonnoma № ...

O'quv dasturi Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan

RIOBBIJAM ilmiy kengash raisi

Xasanov U.S.

MAVZULI MALAKA OSHIRISH KURSI O'QUV REJASI

№	Modullar va mavzular nomi	Jami kredit	Amaliy mashg'ulotlar		Attestatsiya
			Seminar (S)	Maxorat darsi (MD)	
1	MODUL: Quloqning klinik anatomiyasi. Quloq fiziologiyasi, quloq patologiyasi bilan og'riqan bemorlarni tekshirish usullari	26	4	16	
2.	MODUL: Otojarrohlik tashkiliy jihatlari. Quloq jarrohlik amaliyotlarining tasnifi.	26	6	20	
3	MODUL: Quloqda o'tkaziladigan jarrohlik amallari	18	14	4	
	Attestatsiya	2			2
	Jami	72	10	36	2

1 Modul. Quloqning klinik anatomiyasi. Quloq fiziologiyasi, quloq patologiyasi bilan og'riqan bemorlarni tekshirish usullari.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	26 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Tashqi, o'rta va ichki quloqning anatomiyasi, fiziologiyasi xususiyatlari bilan turli kasalliklarning kelib chiqishi, shakllanishi, kechishi o'rtasidagi bog'liqlik. Quloq kasalliklari bilan og'riqan bemorlarni zamonaviy tekshirish usullarini o'rganish.
O'quv modul yakunida bitishi lozim:	(Quloqning anatomiyasi va fiziologiyasi. Quloq kasalliklarni tashxislashning zamonaviy nur tekshirish usullari (KT, MRT, MSKT, UTT va boshqalar) natijalarini taxil etishi. Bo'sag'a usti tonal audiometriyasi, nutq audiometriyasi, Langenbek bo'yicha shovqinli audiometriya, bolalarda uchun tavsifiya etilgan tekshirish natijalarini taxil etish. Akustik impedansometriya, otoakustik emissiyani qayd natijalarini taxil etishi. Otomikroskopiya, videootoskopiya. Mikrootoskopiya, endoskopik otoskopiya, amaliy bajarishi
O'quv moduli yakunida	

bo'lishi;

Dasturlarning dolzarbligi:

Otojarrohlikda quloq va eshitishning anatomik yaxlitligini tiklash tamoyili tobora ko'proq kuzatilmoqda. Bu jarrohlik aralashuvlar vaqtida mikroinstrumentlar va jarrohlik mikroskopdan foydalanishni talab qiladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun shifokor yaxshi umumiy tibbiy tayyorgarlikni, otorinolaringologiyaning nazariy masalalarini o'rganishni, klinika, tashxislash, quloq kasalliklarini differensial tashxisini va bemorlarni davolash usullarini bilimiga ega bo'lishini talab qiladi. Shu munosabat bilan otorinolaringologlar va surdologlarning muhim vazifalaridan biri aholi o'rtasida eshitish qobiliyatini zaiflashuvini oldini olish bo'lib, bu quloq kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash, to'g'ri tashxislash va davolashni hamda profilaktik chora-tadbirlarni ko'zda tutadi. Bu esa eshitish kasalliklari bilan og'riqan bemorlarni ixtisoslashtirilgan parvarish qilish tizimini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni taqozo yetadi.

Dastur hajmi 72 kredit .

O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda
- sayyor - o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda o'tkaziladi.

Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:

- Kunduzgi - kuniga 6 kredit, mashg'ulotlar 8.30 da boshlanib, 13.30 da tamom bo'ladi. Tushlik 30 daqiqa.
- on/offline, masofaviy – kuniga 3 kredit
- sayyor – kuniga 6-8- kredit

Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiya:

bo'sag'a va bo'sag'a usti tonal audiometriyasi ma'lumotlari asosida tashxis qo'yish qobiliyati va tayyorligi; eshitish a'zosi quloqning qonuniyatlarini tahlil qilish, anatomo – fiziologik o'ziga xosligidan kelib chiqib, klinik - instrumental tekshiruvining asosiy usullarini bilishi va eshitish a'zosi kasalliklarini o'z vaqtida tashxislash uchun bemorlar organizmining funksional holatini baholay olishi; eshitish a'zosi kasalliklarining asosiy patologik belgilari va sindromlarni aniqlashi, tashxis qo'yish uchun MKB-10dan foydalana bilishi, eshitish a'zosi kasalliklarida shoshilinch va hayotga xavf solishi mumkin holatlarni baxolash uchun asosiy nazariy bilim va amaliy ko'nikmalaridan oqilona foydalana bilishi lozim.

O'qish tugagandan so'ng beriladigan xujjat: o'quv dastur bo'yicha ta'lim olishni muvaffaqiyatli yakunlagan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Quloq xirurgiyasining kirish" mavzuli malaka oshirganligi haqida Davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

tinglovchi bajara olishi lozim:	Akumetriya, eshitish nayi o'tkazuvchanligimi tekshirishi o'tkazishi. Bo'sag'a tonal audiometriyasi bajarishi
Adabiyotlar	1. Xasanov U.S., Voxidov U.N. Quloq kasalliklari // O'quv qo'llanma.-Toshkent.-"Renessans press" nashriyoti - 2021 yil.-320 bet. 2. Arifov S.S., Yunusova G.Ya. Otokleroz diagnostikasi va differensial diagnostikasi bo'yicha klinik tavsiyalar. //Metodik qo'llanma. - Toshkent. 2019. — 26 bet. 3. Voxidov N.X., Nurov U.L., Radjabov R.R., Nurova G.U. Klinik otorinolaringologiya // "Durdona" nashriyoti. - Buxoro.-2019.- 450 bet. 4. Mamatova T.Sh., Orifov S.S. O'tkir sensornevrал eshitish zaiflashuvi bo'lgan bemorlarni davolash. //Metodik qo'llanma. - Toshkent. 2019. — 26 bet.

2 Modul. Otojarrohlik tashkiliy jihatlari. Quloq jarrohlik amaliyotlarining tasnifi.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	26 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Quloq kasalliklarida o'tkaziladigan mikrojarrohlik amaliyotlari uchun asbob-anjomlar, material, uskumalar, bo'limlarning tuzilishi, otojarrohlikda anesteziologiya xizmatini tashkil etish, sanatsiyalovchi jarrohlik amaliyotlari, quloqda yallig'lanish jarayoni asoratli kechganda xajmli jarrohlik amaliyotlari, eshitish yaxshilovchi jarrohlik amaliyotlari, quloq mikrojarrohlik amaliyotlarini xususiyatlari o'rganiladi.
O'quv moduli yakunida bilishi lozim:	Quloq kasalliklarida o'tkaziladigan mikrojarrohlik amaliyotlari uchun asbob-anjomlar, material, uskumalar, bo'limlarning tuzilishi, otojarrohlikda anesteziologiya xizmatini tashkil etish, sanatsiyalovchi jarrohlik amaliyotlari, quloqda yallig'lanish jarayoni asoratli kechganda xajmli jarrohlik amaliyotlari, eshitish yaxshilovchi jarrohlik amaliyotlari, quloq mikrojarrohlik amaliyotlarini o'tkazilish bosqichlari, ko'rsatmalar, qarshi ko'rsatmalar, o'tkazilish tartibi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	Sanatsiyalovchi jarrohlik amaliyotlari o'tkazish Quloqda yallig'lanish jarayoni asoratli kechganda xajmli jarrohlik amaliyotlari o'tkazish Eshitish yaxshilovchi jarrohlik amaliyotlari o'tkazish Quloq mikrojarrohlik amaliyotlari o'tkazish
Adabiyotlar	1. Xasanov U.S., Voxidov U.N. Quloq kasalliklari // O'quv qo'llanma.-Toshkent.-"Renessans press" nashriyoti - 2021 yil.-320 bet. 2. Arifov S.S., Yunusova G.Ya. Otokleroz diagnostikasi va differensial diagnostikasi bo'yicha klinik tavsiyalar. //Metodik qo'llanma. - Toshkent. 2019. — 26 bet. 3. Arifov S.S., Yunusova G.Ya. Otokleroz diagnostikasi va differensial diagnostikasi bo'yicha klinik tavsiyalar. //Metodik qo'llanma. - Toshkent. 2019. — 26 bet. 4. Mamatova T.Sh., Orifov S.S. O'tkir sensornevrал eshitish zaiflashuvi bo'lgan bemorlarni davolash. //Metodik qo'llanma. - Toshkent. 2019. — 26 bet. 5. Maxkamova N.E. Otorinolaringologiya// Darslik. Toshkent.-2020.-450 bet.

3 Modul. Quloqda o'tkaziladigan jarrohlik amallari.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	18 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Timpanotomiya, parasetez, antropunksiya, antrodrenaj, timpanoplastika, otoskleroz jarrohlik amaliyoti, Men'er kasalligi davolashda jarrohlik usullari, eshituv nayi jarrohlik amaliyotlari, otojarrohlikda implant texnologiyalari, chakka suyagi disseksiyasi jarrohlik amallari o'tkaziladi.
O'quv moduli yakunida bilishi lozim:	Timpanotomiya, parasetez, antropunksiya, antrodrenaj, timpanoplastika, otoskleroz jarrohlik amaliyoti, Men'er kasalligi davolashda jarrohlik usullari, eshituv nayi jarrohlik amaliyotlari, otojarrohlikda implant texnologiyalari, chakka suyagi disseksiyasi jarrohlik amallari o'tkazilish bosqichlari, ko'rsatmalar, qarshi ko'rsatmalar, o'tkazilish tartibi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	Timpanotomiya, parasetez o'tkazish Antropunksiya, antrodrenaj o'tkazish Timpanoplastika o'tkazish Otokleroz jarrohlik amaliyoti o'tkazish Men'er kasalligi davolashda jarrohlik usullari o'tkazish Eshituv nayi jarrohlik amaliyotlari o'tkazish Otojarrohlikda implant texnologiyalari o'tkazish Chakka suyagi disseksiyasi o'tkazish.
Adabiyotlar	1. Xasanov U.S., Voxidov U.N. Quloq kasalliklari // O'quv qo'llanma.-Toshkent.-"Renessans press" nashriyoti - 2021 yil.-320 bet. 2. Arifov S.S., Koxlear implantatsiya. // Monografiya - Toshkent. 2020. — 135 bet. 3. Arifov S.S., Yunusova G.Ya. Otokleroz diagnostikasi va differensial diagnostikasi bo'yicha klinik tavsiyalar. //Metodik qo'llanma. - Toshkent. 2019. — 26 bet. 4. Mamatova T.Sh., Orifov S.S. O'tkir sensornevrал eshitish zaiflashuvi bo'lgan bemorlarni davolash. //Metodik qo'llanma. - Toshkent. 2019. — 26 bet. 5. Maxkamova N.E. Otorinolaringologiya// Darslik. Toshkent.-2020.-450 bet.

Attestatsiya. Sinov.

Dasturni amalga oshirishning tashkiliy pedagogik ta'minoti

O'quv va amaliyot bazasi: Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo'yim kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.

Dastur bo'yicha auditoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati: elektron doska, kompyuter, proektor, doska, flebchat, marker. Modulalar bo'yicha tavsiya qilinadigan o'quv uslubiy xujjatlar, tarqatma materiallar, nazorat savollari, testlar, vaziyatli masalalar, amaliy kunikmalar, qo'shimcha adabiyotlar elektron nusxada saqlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Xasanov U.S., Voxidov U.N. Quloq kasalliklari // O'quv qo'llanma.- Toshkent.-"Renessans press" nashriyoti - 2021 yil.-320 bet.
2. Arifov S.S. Koxlear implantatsiya. // Monografiya - Toshkent. 2020. — 135 bet.
3. Arifov S.S., Yunusova G.Ya. Otokleroz diagnostikasi va differensial diagnostikasi bo'yicha klinik tavsiyalar. //Metodik qo'llanma. - Toshkent. 2019. — 26 bet.
4. Voxidov N.X., Nurov U.I., Radjabov R.R., Nurova G.U. Klinik otorinolaringologiya // "Durdona" nashriyoti. - Buxoro.-2019.- 450 bet.
5. Mamatova T.Sh., Orifov S.S. O'tkir sensornevrал eshitish zaiflashuvi bo'lgan bemorlarni davolash. //Metodik qo'llanma. - Toshkent. 2019. — 26 bet.
6. Maxkamova N.E. Otorinolaringologiya// Darslik. Toshkent.-2020.-450 bet.

Internet-resurslar

- <http://www.med.uz>
<https://elibrary.ru>
<https://www.lorlife.kiev.ua>
<http://www.medline.ru>
<http://www.medel.com>
<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov>
<http://www.melfon.ru>
<http://www.lor.ru>
<http://www.lormii.ru>
<http://www.doctormarabote.ru>
<http://www.med2000.ru>
<http://rusmedserv.com>
<http://www.doctor.ru>